

CHUSTIY HAYOTI VA IJODINING O‘RGANILISHIGA DOIR

Otaxanova Mahmuda Mamadaliyevna

Namangan davlat universiteti,

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi

E-mail: otaxanovamahmuda30@gmail.com

[Tel:+998936768400](tel:+998936768400)

ANNOTATSIYA

XX asrda yashab, mumtoz an‘analar yo‘lida qalam tebratgan ijod ahli kam emas. Ular qatoriga Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Habibiy, Sobir Abdulla, Nabixo‘ja Nurillaxo‘ja o‘g‘li Chustiy, Asqarali Charxiy, G‘afur G‘ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol kabi shoirlarni kiritish mumkin. Ana shunday shoirlardan biri Nabixon Chustiydir. Maqolada shoir hayoti va ijodining o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilish jihatlariga e‘tibor qaratilgan. Unda shoirning adabiy merosi, badiiy uslubi hamda ma‘rifiy-estetik qarashlari turli davrlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida yoritiladi.

***Kalit so‘zlar:** aruz, barmoq, she‘riy tizim, devon, XX asr o‘zbek she‘riyati, an‘aana, o‘ziga xoslik, badiiy mahorat.*

ON THE STUDY OF THE LIFE AND WORK OF CHUSTIY

Otaxanova Mahmuda Mamadaliyevna

Teacher of the department of uzbek literary criticism

Namangan State University

E-mail: otaxanovamahmuda30@gmail.com

Tel: +998936768400

ABSTRACT

In the twentieth century, there were numerous literary figures who created works in the tradition of classical literature. Among them are such poets as Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Habibiy, Sobir Abdulla, Nabikhoja Nurillakhoja o‘g‘li Chustiy, Asqarali Charxiy, Gafur Gulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, and Jamol Kamol. One of these prominent poets is Nabikhon Chustiy. This article examines the study of the poet’s life and creative legacy within Uzbek literary scholarship. It analyzes his literary heritage, artistic style, and educational-aesthetic views on the basis of scholarly research conducted in different periods.

***Keywords:** aruz, syllabic meter, poetic system, divan, twentieth-century Uzbek poetry, tradition, originality, artistic mastery.*

К ВОПРОСУ ИЗУЧЕНИЯ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА ЧУСТИЙ

Отаханова Махмуда Мамадалиевна

преподаватель кафедры узбекского литературоведения

Наманганского государственного университета

E-mail: otaxanovamahmuda30@gmail.com

Тел.: +998936768400

АННОТАЦИЯ

В XX веке существовало немало представителей творческой интеллигенции, писавших в русле классических традиций. К их числу относятся такие поэты, как Зокиржон Холмухаммад угли Хабибий, Собир Абдулла, Набиходжа Нуриллахужа угли Чустий, Аскарали Чархий, Гафур Гулям, Эркин Вахидов, Абдулла Арипов, Джамол Камол. Одним из таких поэтов является Набихон Чустий.

В статье уделяется внимание вопросам изучения жизни и творчества поэта в узбекском литературоведении. В ней на основе научных исследований, проведённых в различные периоды, освещаются литературное наследие поэта, его художественный стиль, а также просветительно-эстетические взгляды.

Ключевые слова: *аруз, силлабическая система, поэтическая система, диван, узбекская поэзия XX века, традиция, своеобразие, художественное мастерство.*

KIRISH

Ma'lumki, XX asr boshlariga qadar she'riyatda ko'hna aruz vazni istifoda etildi. Undan keyingi davrlardan e'tiboran muborak aruz tarixiy vazn darajasida baholanib, uning o'rnini barmoq, qolaversa, sarbast egalladi. Barmoq she'r tizimi qayta jonlanib, zamonaviy adabiy jarayonning muhim poetik unsurlaridan biriga aylandi. Fitrat, Cho'lpon, Elbek, Botu, Usmon Nosir kabi shoirlar she'riyatimizga erkin vazn va oq she'r kabi yangi shakllarni olib kira boshladi. Jamiyat hayotidagi jiddiy ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar shiddati endilikda og'ir-vazmin aruz vazni taraqqiyotiga bo'y bermay qo'ygan edi. Bu davrdagi ko'hna aruzga munosabat masalasi xususida akademik I.Sulton quyidagi fikrlarni bildirgan: "Asrimizning 20-yillarida bizning boy madaniy va adabiy merosimizga ixlosimiz qoralandi, o'tmish madaniyatimizni o'rganish man etildi. Hatto asrimizning oltmishinchi yillarida ham, masalan, ming yillik she'riyatimizning shakli bo'lgan aruzga salbiy munosabat rasmiy ravishda "kattalar" ning nutq va maqolalarida aniq izhor etildi" [Izzat Sulton, 1996: 4]. Lekin shunday vaqtlarda ham she'riyat o'zining azaliy o'zanlaridan butunlay og'ib ketmadi.

Bu davrda she'riyatning asosiy diqqat-e'tibori hayot va kishilar tafakkuridagi o'zgarishlarni butun bo'y-basti bilan tasvirlashga qaratildi. Zero, "XX asr o'zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti bilan mustahkam aloqa o'rnatdi. Bunday aloqa adabiyotimizning avvalgi bosqichlarida bo'lmagan. XX asr o'zbek adabiyoti xalq va jamiyatni o'z ortidan yetaklab, ularni hurriyat va milliy taraqqiyot manzillariga olib borishga intildi va bu intilishda muayyan yutuqlarga erishdi" [Karimov, 2001: 24-28]. O'zbek she'riyati poetik shakl va janr, til va uslub jihatidan yangi pog'onaga ko'tarildi. Barmoq vaznida bitilgan an'anaviy she'rlar bilan birga mumtoz adabiyotimizning asosiy she'riy janrlari – g'azal, mustazod, ruboiy, tuyuq va muxammas kabi poetik shakllardan keng foydalanildi. Jumladan, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Habibiy, Sobir Abdulla, Nabixo'ja Nurillaxo'ja o'g'li Chustiy, Asqarali Charxiy, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol kabi shoirlarning aruz vaznidagi she'rlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur ijodkorlar ko'hna aruz "chirog'ini" o'chirmaslikka intilib, mumtoz an'analarga sodiq qolgan holda devonlar tuzdi, bu an'analarning hayotiyiligini isbot etishdan to'xtamadi. Ularning bunday sa'y-harakatlari yosh ijodkorlarda ham g'azal janriga muhabbat uyg'otdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Chustiyning serqirra ijodi adabiyotshunosligimizda I.Sulton, Sh. Yusupov, M. Nurmatov, I. Abdulloh, H. Sa'dulla, A.Qayumov, A. Xalilbekov, H.Homidiy, M. Ma'murov, M.Xo'jayev, M. In'om, U. Abduazimova, A. Abduvaliev, Z. Dehqonova, T. Toshev, H. Orifiy, shuningdek, G. Boltayeva, Sh. Rahmonova, S. Shomurodova singari olimlar tomonidan o'rganilgan. Bu tadqiqotlarni mazmun-mohiyatiga ko'ra ikkiga bo'lib tasniflash mumkin:

1. Muayyan davr adabiyoti va she'riyati xususiyatlari o'rganilgan ishlarda Chustiyga munosabat masalasi. Bu guruhga I.Abdulloh, A. Xalilbekov, A.Qayumov, L.Qayumov, H.Homidiy, M.Ma'murov kabi olimlarning tadqiqotlari hamda Sh.Rahmonova, S.Shomurodova, G.Boltayevalarning dissertatsiyalarini kiritish mumkin.

2. Chustiy ijodiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar. Mazkur guruhga esa I.Sulton, Sh. Yusupov, M. Nurmatov, U.Yusupov, M.Xo'jayev, M. In'om, H. Orifiy, M. Ma'murov, Z. Dehqonova singari olimlarning shoir devonlariga yozgan so'zboshilari, maqola va taqrizlarini kiritish mumkin. Binobarin, taniqli adabiyotshunos olim Hoji Ismatulloh Abdulloh "Markaziy Osiyoda Islom madaniyati" deb nomlangan 9 bobli kitobining 6-bobida Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan 85 ta adib, shoir, tilshunoslar haqida ma'lumotlar bergan. Jumladan, mazkur bobda aruznavis shoir Chustiyning hayotiy va ijodiy faoliyatiga ham

qisqacha to‘xtalib o‘tgan. Akademik A.Qayumov “Akademik G‘afur G‘ulom” nomli xotiralardan iborat risolasida shoirning ilmiy va ijodiy faoliyatini yoritib ekan, “XX asr o‘rtalarida O‘zbekistonning eng shuhratli shoirlaridan biri Chustiy edi... Uning yozgan g‘azal va murabba‘lari, muxammas va masnaviylari xalq og‘ziga tushib ketgan, ularni xalq sevib qo‘shiq qilib kuylar edi”[Qayumov, 2002:83-84], deya Chustiy ijodi haqidagi o‘z mulohazalarini bayon qilgan.

Adabiyotshunos A.Xalilkekovning “Namangan adabiy gulshani” nomli ilmiy tadqiqotida Chustiy tarjimai holidan tashqari teran ilmiy kuzatishlar ham mavjud. Jumladan, olim shoirning g‘azallari “mavzuan xilma-xil” ekanligi, ularda “buyuk insoniy ne‘mat bo‘lgan, qadimiy, ammo hech bir zamonda eskirmaydigan, abadiy mavzu – muhabbat mavzusi nihoyatda chiroyli, o‘ynoqi va yorqin” kuylanganligi, shu bilan birga, “el ishq, yurt muhabbati shoir g‘azallarining asosiy va yetakchi mavzularidan” ligi, “ayniqsa, urush davrida yaratgan g‘azallarida adib vatanparvarlik g‘oyalarini kuchli ifoda” laganligi-yu “favqulodda topib qo‘llangan tashbehlar, istioralar shoir hikmatlari ta’sir kuchini yanada oshir”ganligini ta’kidlaydi. Shuningdek, “Indamaslar olami” manzumasini tahlil etar ekan, u Chustiy ijodida alohida o‘ringa ega bo‘lgan asar ekanligini, falsafiy fikrlarga boyligi va ta’sirchanligi, ibrat va hikmatlarga to‘laligi bilan ajralib turishini alohida uqtiradi.

“Namangan adiblari” risolasi mualliflari – adabiyotshunos olimlar H.Homidiy va M.Ma’murovlar 140 ga yaqin namanganlik shoir va yozuvchilarning hayoti hamda ijodi haqida fikr yuritilib, asarlaridan namunalar berilgan. Jumladan, risolada Chustiyga ham alohida o‘rin ajratilgan. Unda Chustiyning kichik tarjimai holi qayd etish asnosida bir qator she’riy tizmalarining e’lon qilinganligi, ijod namunalarining aksariyatida pandnoma ruh ustuvor bo‘lganligi, shoirning tarjimachilikda ham barakali ijod qilganligi, xususan, Sa’diyning “Bo‘ston” asari Chustiy tarjimasida o‘ziga xos tarzda amalga oshganligi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Mazkur risola tazkira xarakterida bo‘lganligi uchun unda Chustiyning “Muhabbatnoma”, “Otam” nomli g‘azallari va Rudakiy ijodidan bir tarjima g‘azali ham keltiriladi.

Sh.Rahmonovanning “XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek she’riyatida aruzning poetik shakl va mazmun takomilidagi o‘rni” nomli dissertatsiyasi Chustiy ijodining o‘ziga xos qirralarini adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishni boshlab bergan dastlabki tadqiqot sifatida e’tiborga molik. Olima o‘z tadqiqotida XX asr ikkinchi yarmida yaratilgan devonlarning, xususan, Chustiy devonlarining ham vazn xususiyatlarini o‘rgangan. S.Shomurodova zamonaviy devonlarning yuzaga kelishi, poetikasi, o‘ziga xos adabiy-estetik tamoyillari va uslubiy jihatlarini yoritib berishga bag‘ishlangan “XX asr o‘zbek adabiyotida devonchilik an’anasi: mavzu, tarkib, vazn

va badiiy san'atlar" nomli dissertatsiyasida Nihoniy, Habibiy, Chustiy, Charxiy, Sobir Abdulla, Nojiy, E.Vohidov kabi shoirlarning devonlarini tadqiqotning obykti sifatida tahlilga tortgan. Lekin olima Chustiyning "Ko'ngil tilagi" nomli devonining janr tarkibini qisman o'rganish bilangina cheklangan.

Adabiyotshunos G.Boltayeva "O'zbek she'riyatida muxammas janri: genezisi, badiiy takomili" nomli tadqiqotida XV-XXI asr o'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyatida muxammas janri genezisi va badiiy takomili xususiyatlarini tadqiq etish jarayonida Hofiz Xorazmiy, Alisher Navoiy, Shohg'arib Mirzo, Mashrab, Turdi, So'fi Olloyor, Huvaydo, Munis, Ogahiy, Haziniy, Nodira, Uvaysiy, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Anbar Otin, Komil Xorazmiy, Yusuf Saryomiy, Hamza, Sidqiy Xondayliqiy, Ibrat, Habibiy, Charxiy, Sobir Abdulla, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Jamol Kamol, Omon Matjon, Mahmud Toir kabi ijodkorlar qatorida Chustiy muxammaslariga ham e'tibor qaratadi. Tadqiqotda shoirning "Kimni izlarsiz?", "Vorislaring biz", "Mening o'lkam" nomli tab'i xud muxammaslari hamda "Yozalar" nomli Fuzuliy g'azaliga taxmis muxammasi muayyan ilmiy muammo doirasida tahlilga tortilgan.

Mazkur tadqiqotlarda Chustiy ijodiyoti va ijtimoiy faoliyatining ayrim qirralariga u yoki bu darajada e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, shoir hayoti va lirik merosi borasida muayyan ilmiy-nazariy xulosalar berilgan dastlabki tadqiqotlar sifatida katta ahamiyatga ega.

Chustiy ijodi maxsus o'rganilgan tadqiqotlar. Aruznavis Chustiy ijodini o'rganish uning hayotlik chog'idanoq boshlangan edi. She'rlari xususida bildirilgan mulohazalar, ular haqidagi bahslar, maqolalar bunga dalil bo'la oladi. Bu jihatdan A.Qahhorning tanqidiy maqolasi [A.Qahhor, 1971: 253-263] alohida ahamiyatga ega. Adabiyotshunos I.Sultonovning Chustiy haqida muayyan ma'lumotlar beruvchi kuzatishlari alohida o'rin tutadi. Olim "Chustiy haqida so'z" nomli maqolasida Chustiyning zabardast g'azalnavis shoir ekanligi, aruzga rasman salbiy munosabat bildirilayotgan bo'lsa-da, hech qachon hazin, ruhiy ezik holda yurmaganini, g'azallarining mashhurligi-yu hozirjavob ijodkorligini alohida e'tirof etgan.

Adabiyotshunos Sh. Yusupovning "Xalqqa baxshida ijod", "Yurakdagi gaplar", "Qirq yillik qadrdon", "Kuyarman otashi hijron aro..." nomli maqolalari Chustiyning hayoti, ijodiy laboratoriyasi haqidagi salmoqli ishlardan bo'ldi. Ayniqsa, Chustiyning "Hayotnoma" nomi bilan 1988-yilda chop etilgan ilk devoniga Sh.Yusupov tomonidan "Xalqqa baxshida ijod" nomli 10 betlik so'zboshi yozilgani alohida e'tirofqa loyiq. Olim mazkur chizgilarda shoir ijodining turli qirralariga to'xtaladi: "Chustiy klassik she'riyatdagi an'anaviy obrazlarga murojaat qilganida, deyarli har safar bu obrazlarning o'zidan oldingi yirik ijodkorlar nigohidan pinhon qolgan biror

yangi qirrasini ochishga, ularga yangicha ma'no va talqin berishga intiladi, ko'p hollarda o'quvchi kutmagan, favqulodda kuchli xulosalar chiqaradi" [Yusupov,1988: 10].

M. Nurmatov esa "Chustiy ijodxonasida" nomli maqolasida Chustiyning ijodkor bo'lib yetishuvida otasining muhim o'rni, keyin esa Qo'qon adabiy muhitining ta'siri, 1939-yildan Markaz – Toshkentda faoliyat yuritishi, durdona asarlari birin-ketin chop etilib, kitobxonlar ko'nglidan munosib joy egallaganligini ta'kidlaydi.

1994-yili shoir tavalludining 90 yilligi, 2004-yili esa 100 yilligi Vatanimiz miqyosida keng nishonlandi. Chustiy haqida ilmiy, publitsistik maqolalar, risolalar yaratildi. Shoirning "Ko'ngil tilagi" nomli devoni chop etildi. Shu yillardan e'tiboran adib M. Inomxonov olib borgan ishlarning salmog'i birmuncha kengroq bo'ldi, deb ayta olamiz. Muallif 1994-yil Chustiyning 90 yillik tavalludiga bag'ishlab xotiralar, esdaliklar va chop etilmagan nazmlardan iborat "Yod etingiz kamtarin Chustiyini ham...", 2004-yilda "Yurakdagi gaplar", 2012-yilda esa "Sog'inch", 2014-yilda "Bir sandiq javohir" nomli kitoblarini chop ettirdi. Muallif mazkur nashrlarda zamondosh shoir, yozuvchilar, san'at ahllarining Chustiy haqidagi turli xotiralarini jamlaydi. Hatto ayrimlarida shoirning biror devoniga kirmagan nazm namunalari ham uchraydi. M.In'omning ijodkor Nazirjon Nazar Mehriy bilan hammualliflikda Chustiy tavalludining 100 yilligiga bag'ishlab chop ettirgan "Orzular guldastasi" nomli risolasi ham Chustiy ijodini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Negaki kitobda Chustiy qalamiga mansub 18 ta she'rning yozilish tarixi hikoya qilingan. Yozuvchi H. Orifiyning 2010-yil "Qalblardasiz, Mavlono Chustiy" nomi bilan nashr etilgan mo'jazgina risolasi ham shoirning hayotiy faoliyati haqida muayyan ma'lumotlar berishda muhim hisoblanadi.

Aruznavis Chustiy ijodini o'rganishga ilmiy yondashuv XX asrning 90-yillari oxirlaridan boshlandi. M.Xo'jayev "Chustiy lirikasida tazod" nomli maqolasida shoir ijodida qo'llangan tazod san'ati va uning o'ziga xosliklari haqida fikr yuritgan. Shundan so'ng tadqiqotchi o'zining bir qator maqolalarini e'lon qilgan. Mazkur izlanishlarning barchasida o'zbek she'riyati an'alarini chuqur o'rgangan Chustiyning badiiy so'zdan mohirona foydalana olganligi she'rlaridan keltirilgan namunalar misolida tahlilga tortilgan. M. Ma'murov "Chustiy maktublari" nomli maqolasida Chustiy ijodida uchraydigan she'riy maktublar va ularning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida fikrlar bildirgan.

Z. Dehqonova "Chustiy abadiyati", "Chustiy tuyuqlari", "Chustiyning pand risolasi" nomli maqolalarida shoir ijodi bo'yicha umumiy xulosalar chiqargan.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoira M. Zohidova muharrirligi ostida shoir Chustiy ijodiga chizgilar, xotiralar, esselar, bag'ishlovlardan iborat "Yod

etingiz kamtarin Chustiyni ham” deb nomlangan kitobning chop etilishi bu borada olib borilayotgan ishlarning yana bir samarali natijasi bo‘ldi.

Shoir asarlarining nashr etilishi istiqloq yillaridan so‘ng biroz jonlandi. Chustiyning bir necha she‘riy to‘plamlari hayotlik chog‘idayoq chop etilib, kitobxonlar qalbidan joy olgan, ammo uning devoni hadeganda bosilavermadi. Buning boisi, albatta, o‘tgan asrning 40-yillari ikkinchi yarmidan e‘tiboran shoir ijodiga qo‘yilgan keskin taqiqlar bo‘ldi. Taassufki, shoir intiqib kutgan devon uning vafotidan so‘ng 1988-yil “Hayotnoma” nomi bilan chop etildi. Shundan so‘ng ijodkorning “Sadoqat gullari” (1992), “Ko‘ngil tilagi” (1994), “Indamaslar olami” (1996), “Ko‘rguncha, xayr endi...” (2004), “Nasihat gulshani” (2012), “Muhabbatnoma” (2013) hamda “Saylanma” (2024) asarlari dunyo yuzini ko‘rdi.

XULOSA

Umuman olganda, adabiyotshunos olimlarning shoir ijodiga, uning she‘riy iqtidoriga bergan baholari bir-biri bilan deyarli uyg‘un va ularning biri ikkinchisini to‘ldiradi, ular Chustiy ijodining u yoki bu qirrasini ochib berishi bilan ahamiyatga molikdir. Lekin ta’kidlash joizki, Chustiy lirikasining janriy tarkibi, mavzular mundariyasi, timsollar tizimi, shuningdek, she‘riy san’atlar, qofiya va radif qo‘llash bilan bog‘liq shoir mahorati masalalari haligacha monografik tarzda maxsus tadqiq qilingan emas, bu esa bugungi adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb masalalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Болтаева Г. Ўзбек шеърлятида мухаммас жанри: генезиси, бадий такомили: Фил. фан. докт. (ДSc) ...дисс. – Тошкент, 2024. – В. 207.
2. Деҳқонова З. Чустий абадияти // Адабиёт кўзгуси, 2006. – № 9. – В. 143-145.
3. Ёд этингиз камтарин Чустийни ҳам // Шоир Чустий ижодига чизгилар, хотиралар, эсселар, бағишловлар.– Тошкент: MASHHUR-PRESS, 2020. – 272 б.
4. Инъомхон М. Бир сандиқ жавоҳир. Замондошлари шоир хақида. Хотиралар, эссе ва Чустий ижодидан намуналар // Тўпловчи М. Инъомов. – Наманган, 2014. – 223 б. ;
5. Инъомхон М. Ёд этингиз камтарин Чустийни ҳам... (хотиралар, эсдаликлар, чоп этилмаган назмлар). – Наманган, 1994. – 112 б.
6. Каримов Н. XX аср менинг тақдиримда // Jahon adabiyoti, 2001. – №1. – Б. 24–28.
7. Қаҳҳор А. Асарлар. Олти томлик. Олтинчи том. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – Б. 253-263.

8. Қаюмов А. Академик Ғафур Ғулом (хотиралар). – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – Б. 83-84.
9. Нурматов М. Чустий ижодхонасида // Наманган ҳақиқати, 1977, 27 август.
10. Нурматов М., Абдуллаев И. Анъаналар ва омилкорлик // Наманган ҳақиқати, 1969, 24 июль.; Нурматов М. Танқид ва эстетика. Монография. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – В. 122-127.;
11. Орифий Ҳ. Қалблардасиз, Мавлоно Чустий. Иккинчи нашр. – Наманган, 2010. – 24 б.
12. Султон И. Чустий ҳақида сўз // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1996 йил, 12 июль, № 28.
13. Халилбеков А. Наманган адабий гулшани. Илмий тадқиқот. – Наманган: “Наманган” нашриёти, 2007. – Б. 228-235.
14. Хўжаев М. Чустий лирикасида тазод // Шарқшунослик, 1999, 4-сон. – Б. 39-44.
15. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти (Қисқача маълумотнома). – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 262.
16. Ҳомидий Ҳ., Маъмуров М. Наманган адиблари. –Тошкент: Фан, 2007. – Б. 65-67.
17. Юсупов Ш. Куярман оташи ҳижрон аро... // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2004. – № 25. – В. 1-2.
18. <https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/abdulla-qahhor-gap-aruzda-emas-1946/>